

UDK:599.4.42/44

QO'LQANOTLI SUT EMIZUVCHILAR (CHIROPTERA) FAUNASINI MUHOFAZA QILISHNING AYRIM JIHATLARI

Abduraxmanova O.Sh., Rajabov F.H.

Qarshi davlat universiteti, O'zbekiston. e-mail: rfarrux924@gmail.com

Ilmiy rahbar: Kuchboyev Abdiraxim Ergashevich

Biologiya fanlari doktori, professor

Annotation. *This article provides information on some aspects of the study, study and conservation of the fauna of the order mammalian arthropods, bats (Chiroptera).*

Bugungi kunda Sutemizuvchilar (Mammalia) sinfining Qo'lqanotlilar (Chiroptera) turkumi faunasi turlar boyligi bo'yicha hali kam o'rganilgan guruh bo'lib qolmoqda. Qo'lqanotlilar (Chiroptera) turkumi faunasi turlari (Arktika, Antarktika va ba'zi okean orollaridan tashqari) deyarli butun Dunyoda tarqalgan [5,8]. Dunyo faunasida qo'l qanotli (Chiroptera) sut emizuvchilar - ko'rshapalaklarni 650 dan ortiq turi mavjud, shundan 19 ta tur O'zbekistonda uchraydi. 2019 yilda nashrdan chiqarilgan O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi" ga 206 ta tur hayvon kiritilgan, shuning 32 ta turi sut emizuvchilar bo'lsa, 4 tasi qo'lqanotlilar - ko'rshapalaklardir [1,2,3,4].

Ko'rshapalaklarni o'rganish ularning o'ziga xos hayot tarzi bilan bog'liq uslubiy qiyinchiliklar bilan murakkablashadi. Ko'pincha ular haqidagi ma'lumotlar hayvonlarning boshqa guruhlarini o'rganish paytida tasodifiy tutish yoki "tasodifiy" kuzatishlar natijasida to'planadi. Qo'lqanotlilarning ko'pgina turlarning kichik o'lchamlarga ega bo'lishi, ularning tungi hayot tarzi, havoda tovush chiqarmasdan harakatlanishi va kirish qiyin bo'lgan boshpanalarda yashashi tadqiqotchilarga ushbu hayvonlarni bevosita kuzatishni ancha mushkullashtiradi. Ko'rshapalaklarni o'rganish maxsus jihozlardan (o'rgimchak to'ri, ultratovush detektorlari va boshqalar) foydalanishni talab qiladi. Natijada, ko'rshapalaklar faunasi haqidagi xaritasida hali ham ko'plab "bo'sh joylar" qolmoqda. Bularga Evrosiyoda Rossiyaning Ural tog'laridan sharqda joylashgan hududlari [6], hamda O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston Respublikasining janubiy hududlari, bu yerlarda ko'rshapalaklarning nafaqat faunaviy tarkibi, balki bioekologik xususiyatlari ham yaxshi o'rganilmagan.

Umuman olganda ko'rshapalaklarning eng jadal tadqiqotlari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yevropa, Shimoliy Amerika va ba'zi tropik mamlakatlarda olib borilgan [7,9,10,11,12]. Qayd qilingan tadqiqotlar ushbu hududlarda tarqalgan ko'rshapalaklar biologiyasining ko'plab xususiyatlarini va ularning ushbu hududlarda tarqalishini aniqlash imkonini berdi. Biroq, bu yerda ham bu hayvonlarning ekologiyasi va epidemiologik ahamiyati to'liq o'rganilmagan.

Hozirgi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ko'rshapalaklarni tadqiq qilish va o'rganish va muhofaza qilish bo'yicha arziqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Yevropaning 32 davlati tomonidan imzolangan "Ko'rshapalaklar populyatsiyasini saqlash bo'yicha Xalqaro shartnoma (EUROBATS)" mavjud. Ko'rshapalak festivallari dunyoning 30 ta davlatida o'tkaziladi. Festival kunlari Evropaning bu mamlakatlarida ushbu hayvonlarni himoya qilish bo'yicha ma'ruzalar, ko'rgazmalar va seminarlar o'tkaziladi va tunda ko'rshapalaklar makoniga bayramona ekskursiyalar tashkil etiladi. Bunga misol sifatida Estoniyani olish mumkin. Estoniyada ko'rshapalaklarning 14 turi qayd etilgan. Eston ko'rshapalaklarining barcha turlari II himoya toifasiga kiritilgan. Estoniya EUROBATs ga 2004 yil 11 noyabrda qo'shilgan. Har yili Estoniyada Xalqaro ko'rshapalak kechasi nishonlanadi. Ko'rshapalaklarni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejası tayyorlanadi. Qishda ham, yozda ham ko'rshapalaklar populyatsiyasining holatini baholash uchun hukumat monitoringi muntazam ravishda amalga oshiriladi. 2020 yilda ko'rshapalaklar Estoniyada "yil hayvoni" sifatida tanlandi [13].

Markaziy Osiyoda Tyan-Shan geologiya jamiyati va G'orlarni tadqiq qilish va saqlash jamg'armasi hamkorligida "Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarga (AMQTH) tegishli noyob g'orlarni saqlash va Qirg'iziston "Qizil kitobi"ga kiritilgan ko'rshapalaklarning noyob turlarining yashash joylarini - fan va ta'lim ob'ekti sifatida muhofaza qilish" loyihasi ishlab chiqilgan. Loyiha BMT TD ning GEF tomonidan Kichik grantlar dasturi orqali moliyalashtirilgan. Loyihaning vazifalari ilmiy maslahatlar, tavsiyalar va g'orlarni saqlash bo'yicha uslubiy va ilmiy qo'llanmalarni ishlab chiqishdir. Xususan, O'rta Osiyo transchegaraviy hududlarida (Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston) global iqlim o'zgarishi sharoitida biotsenozlar va bioxilma-xillikni noyob va foydali komponentlaridan biri ko'rshapalaklarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini belgilaydi. Bu O'zbekiston uchun ham bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha transchegaraviy muhim muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston hududida 1000 dan ortiq katta kichik g'orlar mavjudligi haqida ma'lumotlar bor. Bular ichida O'zbekiston tog'larining mashhur g'orlari: Teshik tosh, Amir Temur, Kiyev, Qora yulduz, Peshag'or, Xo'jaikon, Hazrati Dovud va boshqalar. Bu g'orlarning aksariyati qadimdan ko'rshapalaklarning makoni bo'lib kelgan va hozir ham ularning asosiy boshpanalari hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatimining barcha hududlarida, shahar va qishloqlarida ko'rshapalaklarning qayshidir turi uchraydi. Lekin keying 50-60 yil ichida mamlakatimizda tarqalgan Ko'rshapalaklar faunasi turlar tarkibi, antropogeh tazyiq kuchaygan muhitdagi bioekologik xususiyatlarini o'rganisga kam e'tibor qaratilmoqda.

Ko'rshapalaklarning ayrim turlari hozirda yo'q bo'lib ketish arafasida. So'nggi o'n yilliklarda bu muammo yana ham keskinlashmoqda. Antrpogen omil ta'sirining kuchayishi, ko'rshapalaklarning azaliy boshpanalarini buzilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa odamlarning ularning qadimgi g'orlar kabi yashash joylariga uyushtirilmagan yoki vahshiylarcha tashrif buyurishi va boshqa harakatlari g'orlarning mikroiklimiga antropogen ta'sir ko'rsatadi va

ko'rshapalaklarni tarixiy yashash joylarini tark etishiga va sonini qisqarib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, ko'rshapalaklarning qishloq xo'jaligi dalalarida pestitsidlar bilan "zaharlangan" hasharotlarni iste'mol qilishi, odamlar tomonidan ko'rshapalaklarni zararkunandalar yoki ularni ta'riflashdagi noto'g'ri qarashlar ham muhim rol o'ynamoqda.

Ko'rshapalaklar mamlakatimiz biotsenozlari va bioxilma-xilligini muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo'lish bilan birga ularning tabiiy muhitdagi ahamiyati ham beqiyosdir. Ko'rshapalaklar qishloq xo'jaligi ekinlarida uchraydigan zararkunanda hasharotlar soniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ko'rshapalaklarning hasharotlar populyatsiyalari soniga ta'siri hasharotxo'r qushlarning ta'siridan ham sezilarli darajada ko'proq bo'ladi, chunki zararkunanda hasharotlarning parvozi asosan kechqurun va tunda, hasharotxo'r qushlar uxlab yotgan paytda sodir bo'ladi. Shuning uchun ko'rshapalaklarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tabiiy ekotizimlarning normal ishlashini ta'minlash uchun ham, qishloq xo'jaligi o'simliklarini zararkunanda hasharotlardan himoya qilish uchun ham muhim rol o'ynaydi. Bu ayni paytda atrof-muhit musaffoligini ta'minlashda, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda, qashshoqlikni kamaytirish va aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби, II жилд: Ҳайвонлар; Ж.А. Азимовнинг умумий таҳрири остида. Т.: "Tasvir" нашриёт уйи, 2019. - 392 б.
2. Богданов О.П. Фауна Узбекской ССР. Рукокрылые. Т.3, вып. 2. – Ташкент: ФАН, 1953. – 74 с.
3. Bobonazarov G.Y. Bioxilma-xillik. Darslik. Qarshi "Nasaf" NMIU nashriyoti, 2021. 317 bet.
4. Bobonazarov G.Y. Bioxilma-xillik qisqarishi va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari. "Sog'lom turmush tarzi va to'g'ri ovqatlanishni tashkil etishning zamonaviy holati va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI (26-27 - aprel 2024-yil, Qarshi). 175-179 b.
5. Кулик, И. Л. Отряд Chiroptera рукокрылые / И.Л. Кулик, В.В. Кучерук // Медицинская териология: Грызуны, хищные, рукокрылые. - М.: Наука, 1989.-С. 168-220.
6. Стрелков, П. П. Об эколого-фаунистических исследованиях рукокрылых / П. П. Стрелков // Plecotus et al. 1999. - № 2. - С. 3-9.
7. Altringham, J. D. Bats: biology and behavior / John Altringham. — New York: Oxford University Press, 1996. 262 p.
8. Mickleburgh, S. P. A review of the global conservation status of bats / Simon P. Mickleburgh, Anthony M. Hutson, Paul A. Racey // Oryx. 2002. - Vol. 36.-№ 1.-P. 18-34.
9. Kunz, T. H. Harem social organization in cave roosting *Artibeus jamaicensis* (Chiroptera: Phyllostomidae) / T. H. Kunz, P. V. August, C. D. Burnett // Biotropica. 1983.- v. 15.-P. 133-138.
10. Neuweiler, G. The biology of bats / Gerhard Neuweiler. 2000. - New York: Oxford University Press, 2000. - 310 p.
11. Evelyn, Michelle J. Roosting requirements of two frugivorous bats (*Sturnira jilium* and *Artibeus intermedius*) in fragmented neotropical forest / Michelle J. Evelyn, David A. Stiles // Biotropica. 2003. - Vol. 35, № 3. - P. 405-418.
12. Chaverri, G. Ecological correlates of range size in the tent-making bat *Artibeus watsoni* / Gloriana Chaverri, Oscar E. Quiros, Thomas H. Kunz // Journal of Mammalogy. 2007b. - Vol. 88. - P. 477-186.
13. <https://elfond.ee/uudised/nahkhiirte-aasta-kulmineerus-lennuka-unejuttude-voistlusega>
14. kizi Norkobilova, Z. B., Rakhmatullayev, A. Y., & ogli Boyjigitov, O. D. (2023). PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION. World of Scientific news in Science, 1(3), 5-14.
15. Bobonazarov GapporYadgorovich B. G. Y., Rahimovna O. N., RabimovaZilolaSHuhratqizi R. Study on the Distribution of Bee Trachea Acarapis Woodi Ticks in Bee Yard of Kashkadarya Region //International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. – T. 8. – №. 04. – С. 27-30.
16. Бобоназаров Г. Я., Омонова Н. Р. OZBEKISTONDA YIRIK SHOXLI QORAMOLLAR TERI OSTI OQRASI HYPODERMA BOVUS (DIPTERA) ORGANILISHIGA DOIR //Журнал Биологии и Экологии. – 2021. – Т. 3. – №. 1.
17. Абдикаюмовна, ХГ (2023). В данной статье приведены сведения о видах, условиях обитания, строении, фауне, экологии, распространении и значении моллюсков в жизни человека в водоемах нашей республики. ЖУРНАЛ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ И НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 2 (5), 78-81.
18. Orziyevich D. B. MOLLUSCS ARE INTERMEDIATE HOSTS OF HELMINTHS IN THE SOUTH OF UZBEKISTAN //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 04. – С. 249-252.
19. Kuchboev A. E. et al. Molecular phylogeny and diagnosis of species of the family Protostrongylidae from caprine hosts in Uzbekistan //Parasitology Research. – 2015. – Т. 114. – С. 1355-1364.